

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

X.K. RAVSHANOVA

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI
TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARI UCHUN
NAMUNAVIY
MASHG‘ULOT ISHLANMALARI**

(USLUBIY KO‘RSATMA)

SAMARQAND – 2023

Ravshanova X. Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun namunaviy mashg'ulot ishlanmalari". Samarqand shahri, 2023-yil, 36bet.

Muharrir: D. O'rinboyeva -Samarqand viloyati PYMO'MM doktori, professor.

Taqrizchilar: **Sh.N.Fayzullayev**- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida mudiri dots.

M.Z.Nigmatova - o'qituvchisi Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'tgatish milliy markazi katta

Ushbu uslubiy ko'rsatmada maktabgacha ta'lim tashkilotida na'munali faoliyat ishlanmalarining ahamiyati, mazmuni, maqsadiva erishilgan ijobiy natijalari, na'munali mashg'ulot ishlanmalarini tashkil etishning bosqichlari, ularni tashkil qilishda bolalarni tayyorlash usullari bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan

Uslubiy ko'rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2023-yil 26-oktabrdagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan

KIRISH

Mashg'ulot ta'lim muassasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

NAMUNAVIY MUJASSAM MASHG‘ULOTLARNING TA‘IM JARAYONIDAGI O‘RNI

Mashg‘ulot bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olib ma‘lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta‘lim muassasasi ta‘lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni va vaqti qat‘iy belgilangan. Maktabgacha ta‘lim muassasasida har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha necha daqiqa davom etishi MTT ning tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan xolda belgilab berilgan.

Mashg‘ulot quyidagi turlarga bo‘linadi:

Bolalarga yangi bilim beruvchi

Bolalarning to‘plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg‘ulotlar.

Bolalarning bilimini sinovchi mashg‘ulotlar.

Kompleks mujassam mashg‘ulotlar

Namunaviy mujassam mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarning amalda qo‘llashga o‘rgatiladi. MTMda tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o‘stirish, savod o‘rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Mashg‘ulotga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rib, uyushgan xolda o‘tkazilganda bolalar oldiga ma‘lum aqliy vazifa qo‘yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma‘lum tomonga yo‘naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani xal etish yo‘lidagi qiyinchilikni engish imkoniyati tug‘iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg‘onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o‘ylaydi va vazifani uddasidan chiqish uchun faxm farosatini ishga soladi. Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachini ko‘rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko‘nikmalarni o‘rganadi. Bu bolalarni amaliy va

aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mo'yqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish narsa yasash solishtirish umumlashtirish, abstraktiyalashni o'rganadilar. Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar shakillantirilib boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarkib toptiriladi. MTMda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

MASHG'ULOT ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR

Noyabr oyi: Transport, yo'l harakati qoidalari. Hayot xavfsizligi asoslari

3-hafta mavzusi: Ehtiyotkor piyoda

Mashg'ulot: Atrof olam bilan tanishtirish.

Mavzu: Yo'l qoidasi- umr foydasi.

Mashg'ulotning maqsadi:

Talimiy: Bolalarni svetofor, yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish, ularni ko'chada yurganda ehtiyotkor, diqqat-etiborli bo'lishga ogohlantirish. Yo'ldagi belgilar nomini to'g'ri ayta olishga o'rgarish, turli kansturusiyalardan transport vositalarini yasashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: bolalarni yo'lda yurish odobiga o'rgatish, ularda vatanga muhabbat, mexribonlik, kabi fazilatlarni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi: bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkuri va fikrlash doirasini oshirish, nutq boyligini rivojlantirish.

Kerakli jixozlar: Yo'l belgilari surati, svetafor, AKT, Mavzuga oid rasmlar.

Mashg'ulotning borishi.

Kirish: Tarbiyachi: Bolajonlar hozir o'lkamizda qaysi fasl?

Bolalarning javobi: Kuz

Tarbiyachi: Kuz faslida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?

Bolalarning javobi: kunlar soviydi, yomg'ir yog'adi.

Tarbiyachi: bolajonlar sizlar bilan o'tgan mavzularimizda nimalarni o'rgangan edik?

Bolalarning javobi: transport turlarini, yo'l belgilarini.

Asosiy qism

Tarbiyachi: Bolajonlar bugun sizlar bilan yo' harakati qoidalarini o'rganamiz (bo'ri va svetafor obrazi kirib keladi)

Bo'ri: Belgilaring pisandmas.

Samokatim yursa bas,

Qoidaning keragi yo'q

Ko'nglim bilish istamas.

Svetafor: Hoy bo‘ri buyoqqa keling.

Bo‘ri: a-a nima ?

Svetafor: siz qizil chiroqda o‘tib ketdingiz, qoidaga binoan javob berishingizga to‘g‘ri keladi.

Bo‘ri: Nima, bo‘lmagan gap, xayr men ketdim.

Tarbiyachi : Bolalar bo‘ri to‘g‘ri ish qildimi?

Bolalar: Yo‘q bo‘ri noto‘g‘ri ish qildi, svetaforni gapiga quloq solmadi.

Tarbiyachi: Bolalar biz bugun sizlar bilan sayohatga chiqamiz .Bo‘riga o‘xshab yo‘l belgilarini bilmasdan noto‘g‘ri harakatlanmaslik uchun bugun sayohatga chiqamiz . sayohatimiz davomida yo‘l belgilari va ularning vazifalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lib olamiz. Bolalar guruhimizga quyoncha mexmon bo‘lib kelibdimi (guruh xonasida quyon bo‘ladi)

Quyoncha: Assalomu alaykum bog‘cha opa, assalomu alaykum bolajonlar men ham yo‘l qoidalarini o‘rganish uchun bugungi mashg‘ulotingizga keldim, qatnshsam maylimi.

Tarbiyachi: xa albatta ruxsat beramizmi bolajonlar. Bolajonlar o‘ylab ko‘raylikchi biz qaysi transpot vositasida sayohatga chiqsak bo‘ladi.

Bolalar: Samalyotda.

Tarbiyachi: Yo‘q bolajonlar samolyot havo transporti biz yo‘lda harakatlanadigan transportda sayohatga chiqishimiz kerak.

Bolalar: Tikoda

Tarbiyachi: Yo‘q bolajonlar biz ko‘pchilikmiz tikoga sig‘maymiz .Yana o‘ylab ko‘ringlarchi, qaysi transportda saohatga chiqsak boladi.

Bolalar: Aftobusda.

Tarbiyachi : Barakalla bolajonlar sizlar to‘g‘ri topdingiz, bolaiar atingchi avtobus kattami, tikomi

Bolarning javobi: Avtobus

Tarbiyachi: Juda yaxshi demak biz nimada sayohatga chiqishimizni tanlab oldik. (Avtobus old qismi maketi yasaladi) Uni boshqarish uchun bizga kim kerak?

Bolalar: Haydovchi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlarning orangizdan haydoVchi tanlab olamiz. Buning uchun bir nechta savollarimga to‘g‘ri javob topishingiz kerak. Savollarga to‘g‘ri javob bergan bolani haydovchi qilib saylab olamiz.

Savollar:

- 1 .Svetaforning necha xil chirog‘i bor?
2. Hafta kunlarini sanab bering
- 3.Nechta fasl bor ?

Tarbiyachi: Savollarga javoblarni eshitdik, (savollarga to‘g‘ri javob bergan quyoncha) haydovchi qilib olamiz.(uning qo‘liga rul beriladi)

Haydovchi quyoncha:

Xavfsiz kezib dunyoda

Bosay desang uzoq yo‘l,

Ruldamisan, piyoda,

Har qadamda hushyor bo‘l.

Yo‘l chetida svetafor ko‘rinadi va haydovchi tezlikni sekinlashtiradi.



Tarbiyachi: bu nima bolajonlar?

Bolalar: Svetafor, svetaforning 3 ta chirog‘i bor qizil, sariq, yashil.

Svetafor:

Menga qara bolajon

Ko‘zim chaqnab turgan on

Xushyor bo'lgin hamma vaqt

Mashinalar serg'ayrat.

Ranglarimga e'tibor

Qarab bilib ol darxol

Qizil yonsa yurmagin

Sariq yonsa shaylangin

Yashil yongan chog'ida

Darxol yo'lingda yurgin

Tarbiyachi: bolalar yo'l chetida "Ehtiyot bo'ling hayvonlar" degan belgi ko'rinadi, bu belgi nimani bildiradi.

Tarbiyachi: Nima uchun haydovchi tezlikni sekinlashtirdi.

Bolalar: Chunki, bu yerda turli xil hayvonlar bor, yo'lda hayvonlar chiqib qolishi mumkin, mashina ularni urib ketishi mumkin. Biz hayvonlarni asrashimiz kerak.

Tarbiyachi: To'g'ri bolajonlar yo'lda davom etamiz.

Bu yerda qanday belgilar bor bolajonlar

Bolalar: Piyodalar o'tish yo'lagi va diqqat bolalar belgilari bor.





Tarbiyachi: Barakalla bolalar. Piyodalar o'tish yo'lagi nima uchun kerak, u piyodalar yo'lni kesib o'tishi, u tomondan bu tomonga o'tishi uchun kerak. Piyodalar o'tish yo'lagidan o'tayotganda yoshi katta bobo va buvilarimizga, yosh bolalilarga, ko'zi ojizlarga yordam berishimiz kerak (piyodalar o'tish yo'lagidan qari buvi o'tadi, bolalar unga yordam berishadi)

Buvi: raxmat sizlarga bolajonlarim.

Tarbiyachi: Diqqat bolalar belgisi nima uchun qo'yiladi bilsizlarmi bolalar bu belgi maktab, bog'cha bor joylarga qo'yiladi shunda haydovchilar sekin mashina haydashadi.

Haydovchi quyoncha: unda biz ham tezlikni pasaytirib 30 k/s tezlikda yuraylik.

Tarbiyachi: bolalar endi sayohatimiz tugadi endi guruhimizga qaytamiz. Kelinglar bolalar sizlar bilan tetiklashtiruvchi mashq bajaramiz.

Ko'chaga chiqdim bunday qilib (Qo'lni belga tiraydi)

Yo'ldan o'tdim bunday qilib (Qo'llar belda, gerdaygan bo'ladi)

Mashinalar chiyilladi

Hushtak qattiq churilladi,

Militsiya keldi bunday qilib (Chest beradi).

Haydovchilar baqirishdi,

Dadamlarni chaqirishdi.

Dadam menga bunday qilidi (Ko‘rsatkich barmoqni silkitadi).

Men yig‘ladim bunday qildim (Ko‘zini uqalaydi).

Endi tartib buzmayman, deb

Chiroqdan ko‘z uzmayman, deb,

Va‘da berdim bunday qilib (Qo‘li ko‘ksida ta‘zim qiladi).

Tarbiyachi: Joyimizga o‘tiramiz, qani bolajonlar bugun qanday belgilarni o‘rgandik eslab olamiz(slayd orqali yo‘l belgilari ko‘rsatiladi va bolalardan so‘raladi va bolalar rag‘batlantiriladi). Endi sizlar bilan xarakterli o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimizning nomi “ Ranglarni ajrat” deb nomlanadi. Xarakterli o‘yin uchun 6 ta bola tanlanadi 6 xil rang tanalanadi xar bir rangdan 5 tadan terib uzun uzun 6ta qator xosil qilinadi xar bir qatorning boshiga bittadan bola turadi. Kubikka ham 6 qatordagi 6 xil rang yopishtiriladi. Tarbiyachi kubikni yerga tashlaganda kubikning tepaga qaragan tomoniga qaysi rang tushsa o‘sha rangli qatordagi bola bir qadam oldinga yuradi, o‘yin shu tariqa davom etadi

Markazlarda faoliyat:

Trabiyachi: bolajonlar keling endi sizlar bilan markazlarda ishlaymiz. Qani boaljonlar kim rasm chizishni hohlaydi?, kimlar mashinalar uchun garaj qurishni xoxlaydi?, Fan va tabiat markazimizda mashinalarimiz yurishi uchun qumda yo‘l hosil qilishga kim menga yordam beradi?

Sanat markazi: svetafor va yo‘l belgilari rasmini chizish, plastilindan svetafor yasash,

Qurush yasash: Mashinalar uchun legolardan garaj yasash,yoki mavzuga mos qirqilgan rasmlarni yig‘ish. (o‘zingizga maqulini tanlaysiz) bolalar rag‘batlantiriladi.

Fan va tabiat markazi: bu markazda oldindan tayyorlab qo‘yilgan maxsus qumda yo‘l quriladi. (Qumning xususiyati o‘rgatiladi)

Mashg‘ulotning yakuni: Bo‘ri (kirib keladi qo‘li va boshi bog‘langan holatda) bolajonlar men yo‘l qoidalariga amal qilmaganligim uchun xalokatga uhradim va shu holatga tushdim sizlardan iltimos menga ham yo‘l xarakati qoidalarini o‘rgating.

Tarbiyachi: o'rgatamiza bolajonlar, bugungi mashg'ulotimiz juda qiziqarli bo'ldi to'g'rimi?

Bolalar: ha

Tarbiyachi: qani bolajonlar mening savollarimga javob beringchi(turli xil yo'l belgilri orqasida yozilgan savollarni tarbiyachi o'qib beradi bolalar savollarga javob beradi) manabu yo'l belgilarini navabtma navbat kelib tanlaysizlar ularning ortida yashiringan sabollarga javob berasizlar

1-savolbu qanday belgi? (DIQQAT BOLALAR belgisi rasmi ko'rsatiladi)

2-savol piyodalar o'tish yo'lagida kimlarga yordam berishimiz kerak?

3-savol mashina qayyerda yuradi?

4-savol samalyot qayyerda yuradi?

5-savol qnday mashina turlarini bilasiz?

Bolalar: savollarga bolalarning javoblari

Tarbiyachi: bolajaonalar barchangizga mashg'ulotda faol qatnashganingiz uchun raxmat (mashg'ulotda faol qatnashgan bolalarga yo'l belgilari tasvirlangan kartochkalar beriladi).

Mashg'ulot: Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish

Mavzu: Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiy: Bolalarning ertak qaxramonlari haqidagi fikrlarini bilib olish, bolalarning lug'at boyligini oshirish, ijobiy obrazdagi ertak qahramonlaridan ijobiy fazilatlarni o'zlashtirish kerakligini o'rgatish.

Tarbiyaviy: bolalarda mexnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanga muhabbat, mexribonlik, halollik, kabi fazilatlarni shakillantirish.

Rivojlantiruvchi: bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkuri va fikrlash doirasini oshirish.

Kerakli jihozlar: AKT, ertak qahramonlari tasvirlangan suratlar, ertak kitoblar, ta'lim o'yin uchun jihozlar.

Mashg'ulotning borishi: Kirish: Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar aylana bo'lib turib olamiz, bir-birimizning qo'llarimizni ushlaymiz va bir birimizga tabassum ulashamiz. Juda yaxshi bolajonlar kayfiyatimizni ko'tarib oldik endi joyimizga o'tirib olamiz. Bolajonlar bugun hafatning qaysi kuni?

Bolalar:

Tarbiyachi: hozir o'lkamizda qaysi fasl?

Bolalar:

Tarbiyachi: Bolajonlar bizning vatanimiz qayyer?

Bolalar:

Tarbiyachi: Bugungi mashg'ulotimizni boshlaymiz. "Bir bor ekan bir yo'q ekan" bu nima bolajonlar.

Bolalar: Ertak

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar. Sizlar qanday ertalkarni eshitgansizlar

Bolalar: Bo'g'irsoq, Zumrad va qimmat, Sholg'om, Uch baxodir....

Tarbiyachi: Xozir sizlarni sinab ko'raman (AKT da bolalarga turli xil ertaklar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi)

Bolalar: bolalarning javoblari

Tarbiyachi: (Eshik taqillaydi va bo'g'irsoq kirib keladi) bolajonlar eshik taqilladimi ochaylikchi kim kelibdi. Bu kim bolajonlar.

Bolalar: Bu bo'g'irsoq ertagidagi bo'g'irsoq.

Tarbiyachi: To'g'ri bolalar. Xush kelibsan. Bu yerga qanday qilib kelib qolding bo'g'irsoqvoy.

Bo'g'irsoq: Men bobom va buvimdan qochib o'rmonda aylanib yurgandim adashib bu yerga kelib qoldim.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu ertakda qaysi qahramonlar ishtirok etishadi qani bir eslaylikchi.

Bolalar: bo'ri, tulki, quyon, bobo, buvi...

Tarbiyachi: Bolajonlar ertakda bo'g'irsoq qanday ashula aytadi bilasizlarmi kelinglar shu ashulani birga aytamiz.

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq

Supradagi un urvoq
Supirishib oldilar
Qaymoqqa xo‘p qordilar
Pishirdilar tovada
Sovutdilar xavoda
Qochib ketdim bobomdan
Qochin ketdim buvimdan
Bo‘ldi quyon endi bas
Sendan qochish hech gapmas.

Tarbiyachi: Ofarin sizlarga bolajonlarim

Bo‘g‘irsoq: Bolajonlar iltimos menga o‘rmonga bobom va buvimning yoniga qaytishimga yordam bering.

Tarbiyachi: Bolajonlar unga yordam beramizmi.

Bolalar: Xa

Tarbiyachi: Xop senga yordam beramiz ammo o‘zboshimchalik qilib kattalar gapiga quloq solmasdan uydan chiqib ketganing uchun bir shartimiz bor shu shartimizni bajarsang senga yordam beramiz. Men hozir senga savollar beraman sen esa savollarimga javob berasan.

Bo‘g‘irsoq: Xo‘p bo‘ladi tarbiyachi opa.

Tarbiyachi: Bu qaysi shakl (uchburchak shakli ko‘rsatiladi)

10 gacha sanab bering

Qish haqida sher aytib bering.

Ingiliz tilida assalomu alaykum qanday aytiladi.

Bo‘g‘irsoq: bo‘g‘irsoqning javoblari.

Tarbiyachi: Barakalla bo‘g‘irsoqvoy barcha savollarimga to‘g‘ri javob berding, sen hozir bolalarning yoniga o‘tir mashg‘ulotimizni kuzat, mashg‘ulotimiz tugagach bolalar bilan birgalikda senga yo‘ni ko‘rsatib yuboramiz.

Bo‘g‘irsoq: Raxmat.

Tarbiyachi: Qani kelinglar bolajonlar sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz. ”Soatdagi ertak“ o‘yini. (Aylana shaklidagi bir xil rangdagi katta mato yoki kartonga

ertak qaxramonlari rasmi soat strelkasi ko‘rinishida joylashtiriladi. Kubikning to‘rt tomoniga o‘nga, chapga, tepaga, pastga ishoralari yopishtiriladi)

Barchangiz aylana bo‘lib turib olamiz bu yerda turli xil ertak qaxramonlari tasvirlangan qo‘limdagi kubikni men tashlayman soatning kichik strelkasi bolalarni ko‘rsatadi, katta strelkasi ertak qaxramonini ko‘rsatadi. Soatning kichik strelkasi qay biringizni ko‘rsatsa o‘sha bola o‘ziga tushgan ertak qahramonini tariflab beradi.

Markazlarda faoliyat: Bolajonlar kelinglar sizlar bilan o‘zingiz yoqtirgan ertak qaxramonlarining rasmini chizamiz, plastilindan yasaymiz.

Mashg‘ulot yakuni: mashg‘ulot davomida faol qtnashgan bolalar rag‘batlantiriladi.

May oyi:Asbob va uskunalar

4-hafta mavzusi: Maishiy asbob-uskunalar – bizning yordamchilarimiz

Mashg‘ulot: Savodxonlikka o‘rgatish

Mavzu: Savodxon bolalar

Mashg‘ulotning maqsadi:

Talimiy: bolalarga savodga o‘rgatish mashg‘ulotlarida o‘tilgan mavzularni takrorlash va shu orqali ularning bilimni mustahkamlash.

Tarbiyaviy: bolalarda jamoa bo‘lib ishlash, bir birini xurmat qilish tushunchalarini mustahkamlash.

Rivojlantiruvchi: bolalarning lug‘at boyligini oshirish, deunyoqarashini kengaytirish.

Kerakli jixozlar: AKT, alifbo, xarfli kartochkalar.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi: Mening aqilli bolajonlarim bugun sizlar bilan savodga o‘rgatish mashg‘ulotidan shu kungacha nimalarni o‘rganganingizni sinab ko‘raman.Bugun men mashg‘ulotni bir o‘zim emas ALIFBO (boshiga alifbo so‘zi yozilgan, bo‘yniga kitob shaklidagi alifbo taqqan obraz) bilan birgalikda olib boraman.

ALIFBO: Assalomu alykum aziz bolajonlar bugun men sizlarning bilingizni sinab ko‘rish uchun o‘z kitobimga topshiriqlar tayyorlab kelganman.(kitob ichida

faqat bolalar o‘tgan mavzular, harflar jamlangan bo‘ladi A, O, N,I, M, D harflari, va turli xil predmetlar)

Tarbiyachi: bolajonlar hozir men sizlarni guruhlariga bo‘lib olaman (bola soniga qarab 2,3 guruhga bo‘linadi). Xar bir guruhdan 1 tadan bola chiqib alifboning istalgan betini ochadi.

ALIFBO: qani sizga qaysi harf tushdi

Bola: bolaning javobi. “A” harfi

Tarbiyachi: tarbiyachi harfni bolalarga eslatadi u haqida yana bir bor tushuncha beradi. A harfi tushganda bolalar bilan birgalikda bu she’rni aytdi

Alifboning boshi –A

Uni hamma biladi

Mana ikki ustuncha

O‘rtasida belbog‘cha.

ALIFBO: alifboda qaysi harf tushgan bo‘lsa o‘sha harfga guruh azolarining har biri bittadan so‘z aytadi.

Bolalar: bolalarning javoblari Menga “M” harfi tushdi- muzlatgich, menga esa “D” harfi tushdi-dazmol, mega “T” harfi tushdi – televizor, menga “K” harfi tushdi – kompyuter.

Mashg‘ulot shu tariqa barcha guruhlar bilan olib boriladi, yaxshi qatnashgan guruh a‘zolari rag‘batlantiriladi

Tarbiyachi: Demak mening savodxon aqilli bolajonlarim bugun bizning alifbomizdan qaysi harflar chiqdi (o‘yin davomida qatnashgan xarflarni tarbiyachi yana bir bor kampyuter ekranida qo‘yib ko‘rsatadi.)

DAM OLISH DAQIQASI

Tarbiyachi: kelinglar bolajonlar sizlar bilan bir dam olish daqiqasi o‘tqazib olamiz. Hammamiz joyimizdan turamiz va birgalikda shu she’rni takrorlaymiz.

Yozib charchar qo‘limiz

O‘qib charchar ko‘zimiz

Boshimiz qo‘yib asta

Dam olamiz ohista

Bolalar qo‘llarini yozayotgandek ko‘rsatadilar, keyin qo‘llarini kitob o‘qiyotgandek qilib ko‘rsatadilar, qo‘llarini juft qiladilar va boshlarini qo‘llariga qo‘yib dam olgandek bo‘ladilar.

Tarbiyachi: Endi bolajonlar sizlar bilan birgalikda “Xarfli soat “ o‘yinini o‘ynaymiz. (bir xil rangdagi matoga soat strelkasi bo‘ylab maishiy texnika jixozlarinig rasmi yopishtiriladi , kubikka esa soatning kata va kichik strelkalari turli tomonga qilib kubikning 4 tomoniga ham yopishtirib chiqiladi. Hammamiz aylana bo‘lib turib olamiz men qo‘limdagi kubikni yerga tashlayman kichik strelka sizlarni ko‘rsatadi, kata strelka esa predmetning rasmini, kchik strelka qaysi bolani ko‘rsatsa u predmetning nomini va qaysi harfdan boshlanganini aytib so‘zni bo‘g‘inga ajratadi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

Markazlarda faoliyat:

San’at markazida origami usulida kitobcha yasash,

Til va nutq markazida topishmoqlar topish(masalan O harfiga oid “ To‘rt oyoqli temir tuyoqli” ot, “ Ko‘k ko‘ylakka qo‘l yetmas” osmon..... shu tarzda.

Qurish yasash markazi: sanoq choplaridan harf va so‘zlar xosil qilish, konstruktorlardan kutibxona yasash.

Mashg‘ulotning yakuni: Tarbiyachi: bolajonlar shuning bilan bugingi mashg‘ulotimiz yakuniga yetdi. Bolalarjonlar bu ertak kitoblar sizlar uchun barchangizga rahmat.

Dekabr oyi : Oy mavzusi Qish

2- hafta mavzusi: Sog‘ tanda – sog‘lom aql

Mashg‘ulot: Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish

Mavzu: “Sog‘lom tanda – sog‘ aql

Mashg‘ulotninh maqsadi:

Ta’limiy – Bolalarni inson tanasining qismlari bilan tanishtirishda davom etish, ularning turli-tumanligi va bajaradigan vazifaliri haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi

tushunchalarini mustahkamlash. Eng muhim oziq-ovqat manbalari haqida, ularning salomatlik uchun ahamiyati to'g'risida tushunchalarini kengaytirish.

Tarbiyaviy – sog'lom bo'lish, o'ziga etiborli bo'lish istagini tarbiyalash. Sog'lom turmush tarziga odatlanishni singdirish. O'z salomatligi uchun mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi – olingan bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish. Mantiqiy fikrlashni va nutqni rivojlantirish.

Kerakli jixozlar:

“Tana qismlari” rasmi. (AKTda). “Tozalik – bu ozodalik” rasmi. (AKT da). “To'g'ri ovqatlanish uchun eng muhim mahsulotlar” rasmi. (AKT da). Oziq-ovqat mahsulotlari. Kartochkalar.

Mashg'ulotning borishi

Kirish:

Tarbiyachi: Assalomu –alaykum aziz bolajonlar.

Bolalar: Asalomu-alaykum.

Tarbiyachi: Hozir bir-biringizga aytgan so'zlaringizning ma'nosini bilasizlarmi?

Bola: Sizga tinchlik, sog'lik tilayman dedik.

Tarbiyachi: Sog'lik – bu nima?

Bola: Sog'lik – bu kasal bo'lmaslik.

Tarbiyachi: Kasal bo'lmaslik uchun qanday qoidalarga rioya qilishimiz kerak?

Bola: Tozalikka rioya qilishimiz kerak.

Bola: Badantarbiya bilan shug'ullanishimiz kerak.

Bola: O'z vaqtida to'g'ri ovqatlanishimiz kerak.

Bola: Toza havoda sayr qilishimiz kerak.

Bola : O'z vaqtida uxlashimiz kerak.

Tarbiyachi: To'g'ri. Siz aytgan qoidalar bizning hayotimizda kerakli bo'lgan muhim qoidalar sanaladi. Ana shunday e'tibor bersak biz doim sog'lom bo'lamiz.

(Doktor Voyjonim kirib keladi)

Doktor Voyjonim:

Badanlari chiniqqan,
Muskuli boʻrtib chiqqan,
Yaxshi uxlab tiniqqan,
Qalbi olgan oromlar,
Sogʻlomlarga salomlar.
Boʻsh vaqtida oʻynagan,
Egri qadam qoʻymagan,
Yalqovlikni suymagan,
Angrayib qolgan xomlar,
Sogʻlomlarga salomlar.

Siz barchaga oʻrnaksiz,
Chindan ham dovyurakiz.
Vatan, xalqqa keraksiz,
Topgansiz ehtiromlar,
Sogʻlomlarga salomlar.

Oʻtkir , ravshan koʻzlari,
Zab kelishgan oʻzlari.
Nokday tarang yuzlari,
Havas qilgan rassomlar,
Sogʻlomlarga salomlar.

Kasalga yoʻl bermagan,
Hech yomonlik koʻrmagan,
Ishlaganda terlagan,
Yashayvering, sogʻlomlar,
Sizga dildan salomlar.

Doktor Voyjonim: Salom bolalar.

Bolalar: Assalomu alaykum.

Tarbiyachi: Xush kelibsiz Doktor voyjonim.

Doktor Voyjonim: (Tarbiyachiga qarab) Meni taklif qilgan edingiz, sizlarga mana bu rasmlarni olib keldim. (Sogʻlom turmush tarziga oid rasmlar koʻrsatiladi)

Tarbiyachi: Raxmat sizga. (Bolalarga rasmlarni koʻrsatib, qanday rasm ekanligini tushuntiradi).

Doktor Voyjonim: Bolalar siz mashgʻulotlarda tana qismlari bilan tanishganmisiz.

Bolalar: Ha.

Tarbiyachi: Bolajonlar, biz oʻzi kimmiz?

Bola: Biz insonlarmiz.

Tarbiyachi: Barakalla. Biz insonlarmiz. Siz insonlarning tana qismlari qanday tuzilganligini bilasiz. Hozir mana bu rasimga qarab Doktor Voyjonimga (“Tana qismlari” rasmini AKT da koʻrsatib) insonning tana qismlarini izohlab beramiz.

Bola: (Rasm asosida ketma-ket koʻrsatadi) Odam gavdasi bosh, boʻyin, tana va qoʻl-oyoqlarga bolinadi. Bular yana, oʻz navbatida tegishli qismlarga ajratiladi. Bosh –miya qutisi va yuzasiga, boʻyin – orqa va oldingi boʻlimga, tana – orqa, koʻkrak va qoringa, oyoq – son, tizza, boldir va oyoq panjasiga, qoʻl – yelka, tirsak, bilak va qoʻl panjalariga boʻlinadi.

Tarbiyachi: Toʻgʻri. Bolajonlar bizning tanamiz teri bilan qoplangan. U qanday vazifani bajaradi?

Bola: Gavda teri bilan qoplangan, organism uchun gʻilof va qoplagich vazifasini bajaradi hamda tashqi muhit taʼsirlaridan himoya qiladi.

Doktor Voyjonim: Barakalla, endi aytinglarchi mana bu nima? (Odam skeletini AKT da koʻrsatadi).

Bola: Bu odam gavdasining skeleti. Skelet muhim tayanch organi boʻlib, organizmga “shakl” berib turadi.

Bola: Suyaklar, ularni bir-biriga tutashtirib turadigan boʻgʻim va boylamlarning hammasi birgalikda tayanch-harakat apparatini tashkil etadi.

Tarbiyachi: To‘g‘ri. U qanday vazifani bajaradi?

Bola: U odamning tik turishi, yurishi va turli – tuman harakatlarni bajarishini ta‘minlaydi.

Doktor Voyjonim: To‘g‘ri. Ana shu tanamizni toza ozoda qilish uchun bizga yordamchilar kerak. Ular nimaligini bilasizlarmi?

Tarbiyachi: tanamizni toza va ozoda saqlashimiz uchun bizga nimalar kerak ekan?

Bolalar: Suv, sovun va sochiq kerak. (AKT da).

(Davraga suv, sovun va sochiq kirib kelishadi, tarbiyachi bolalardan birini sochiq, sovun, suv obraziga kiritadi).

Sochiq:

Men sochiqman, sochiqman

Ko‘ngli doim ochiqman.

Borman, har uy, har joyda,

Shayman mehnat bor joyda.

Hamma surtar yuziga

Surtaryuzu ko‘ziga.

Tun-kun mehnat qilsam ham

O‘zim kirga to‘lsam ham.

Elni toza qilsam bas –

Shudir orzuim xolos.

Salom bolajonlar men yumshoq-momiq sochiqman. Sizlar mening do‘stlarimni taniysizlarni ular haqida nimalarni bilasiz?

Bola: Suv – obi hayot demakdir. U rangsiz va hidsiz suyuqlik bo‘lib biz undan kundalik hayotda foydalanamiz. Suv bizga ichish, yuvinish, yuvish, o‘simliklarni sug‘orish, ovqat tayyorlash uchun kerak bo‘ladi.

Bola: Sovun Turli hayvon va o‘simlik yog‘lari, sintetik yog‘ kislotalari sovun ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Qanday maqsadlarda ishlatilishiga qarab kirsovun, atirsovun, shifobaxsh sovunlardan foydalaniladi. Qo‘l, badan va boshni yuvishda atirsovundan foydalanamiz.

Tarbiyachi: agar bolalar javob berisha olmasa tarbiyachi o‘zi yordam berib yo‘naltiruvchi savollar beradi (masalan: biz har kuni ertalab nima bilan yuzimizni yuvamiz kabi).

Doktor Voyjonim: Demak, sog‘lom bo‘lish uchun avvalambor biz tozalikka e‘tibor berishimiz kerak ekan. (Olib kelingan rasmlardan “Tozalik – bu ozodalik” rasmi AKT da). Qani bolajonlar o‘rnimizdan turib, gavdamizni tik tutamiz. Men bilan birgalikda mashqlarni bajaramiz.

(tetiklashtiruvchi mashq bajaradi).

Doktor Voyjonim:

Chiniqtiring tanangizni,

Shamollating xonangizni.

Shunda bardam yurasiz,

Doim sog‘lom bo‘lasiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar, salomatlik haqida maqollar ham bilasizlarmi? (Bolalar ayta olmasa tarbiyachi o‘zi aytadi)

Bola: Salomatlik – tuman boylik.

Bola: Sog‘lom tanda – sog‘ aql.

Bola: Tozalik – sog‘lik garovi.

Bola: Izzat tilasang, ko‘p dema.

Sihat tilasang, ko‘p yema.

Doktor Voyjonim: Sihat tilasang ko‘p yema dedingizmi bolajonlar? Siz buni qanday tushunasiz? Insonga ovqat nima uchun kerak?

Bola: Insonga ovqat yashash uchun kerak.

Tarbiyachi: To‘g‘ri, qanday oziq-ovqat mahsulotlari biz uchun foydali? (To‘g‘ri ovqatlanish uchun eng muhim mahsulotlar haqida suhbat o‘tkaziladi).

Doktor Voyjonim: Demak biz nimaga e‘tibor berishimiz kerak ekan?

Bolalar: To‘g‘ri ovqatlanishga.

Tarbiyachi: Agar sizni oziq-ovqat do‘koniga yuborishsa siz foydali oziq-ovqat mahsulotini olib kelaolasizmi? Hozir buni sinab ko‘ramiz.

O‘yin:“Nima foydali-yu, nima zararli?”

(Do‘konga turli xil sabzvot mevalar gazli ichimliklar, shirinliklar go‘sh va shu kabi oziq ovqat maxsulotlari ilish uchun moslashtirilgan holda tayyorlanadi. Do‘kondagi mahsulotlardan savatga solishadi va ularning foydali hamda zararli tomonlarini izohlab berishadi).

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar, sizlarning bemalol do‘kondan xarid qila bilishingiz haqida onalaringizga aytib qo‘yaman. Endi esa hammamiz birgalikda ajoyib “Vitamin” daraxtini

(oldindan tayyorlangan daraxt) o‘stiramiz. Stol ustidagi foydali oziq-ovqat mahsulotlarini shu daraxtimizga ilamiz. (Bolalar bajarishadi). Ana ko‘rdingizmi ajoyib daraxtimiz qanday baquvvat bo‘lib o‘sdi.

Doktor Voyjonim: Demak, agar to‘gri ovqatlansak nima bo‘lar ekan?

Bolalar: BAQUVVAT bo‘lamiz, SOG‘LOM bo‘lamiz.

Musiqali harakatli o‘yin

Tarbiyachi keeling bolajonlar sizlar bilan bir musiqy harakatli o‘yin o‘ynaymiz. A3 farmatdagi qattiq qog‘ozga 4 xil rang yopishtiriladi tarbiyachi qo‘lida ham xuddi shu ranglar tasvirlangan belgilar bo‘ladi tarbiyachi qaysi rangni ko‘rsta bolalar o‘sha rangdagi qog‘oz ustida o‘ynashi kerak musiqa sadolari ostida, tarbiyachi o‘yin davomida rangli belgilarni almashtirib turadi bolalar ham almashgan rangning ustiga chiqib o‘ynashlari kerak bo‘ladi.

MARKAZLARDA FAOLIYAT

Tarbiyachi: bolalar endi sizlar bilan o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun mzkazlarda ishlaymiz kim qayssi markazni xoxlasa o‘sh markazga joylashib olsin. San‘at markazi: inson tanasi rasmini chizamiz va plastilin yordamida odamcha yasaymiz. Qurush yasash markazida o‘z tanamizni pazillardan yig‘amiz.

Mashg‘ulotning yakuni: bolajonlar bugungi mashg‘ulotimiz sizlarga yoqdimi unday bo‘lsa juda hursandman, endi mashg‘ulotimizga yakun yasaymiz.

Tarbiyachi tomonidan bolalar rag‘batlantiriladi.

Aprel oyi: Yer sayyorasi – umumiy uyimiz

4-hafat mavzusi “Sayyorani asra”

Mashg‘ulot: Fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya

Mavzu: Tabiat va biz

Mashg‘ulotning maqsadi:

Talimiy: bolalarga tabiat, xayvonlar, o‘simliklar, suv, havo kabilar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish. Tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish kerakligini tushuntirish.

Tarbiyaviy: bolalarga o‘simliklarni nobut qilmaslik, xayvonlarga ozoz bermaslik, suvni isrof qilmaslik haqida tushunchalar berish.

Rivojlantiruvchi: bolalarning lug‘at boyligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish.

Kerakli jixozlar: AKT, tabiat tasvirlangan suratlar, qalam oq qog‘oz, plastilin, qum, suv, ranglar.

Mashg‘ulotning borishi: Bolajonlar qani aylana bo‘lib turib olamiz. Men kimga ko‘ptokni o‘tsa o‘sha bola mening savollarimga javob beradi. Endi joyimizga o‘tirib olamiz. Bolalar bugun sizlar bilan “Tabiat va biz “ mavzusida mashg‘ulot o‘tamiz. Bolajonlar qani kim biladi tabiat nima.

Bolalar: bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: bizni o‘rab turgan barcha narsalar o‘simliklar, xayvonlar, qushlar, daraxtlar, suv, havo, tuproq bolarning barchasi tabiat deyiladi. Bugungi mashg‘ulotimizga men ona tabiatni mexmonga chaqirganman. Qani keling ona tabiat.

Tabiat:(Xonaga yashil kiyingan tabiat kirib keladi) Assalomu alaykum aziz bolajonlar men ona tabiat bo‘laman, Menda o‘simliklar, hayvonlar, daraxtlar, daryolaru, dendizlar, qushlaru xashoratlar mavjud.

Tarbiyachi: Bolajonlar tabiatimizdagi bu narsalar bizning boyligimizdir. Biz ularni asrab avaylashimiz zarur.

Tabiat:to‘ppa to‘g‘ri aytdingiz. Ammo hozirda insonlar mening boyliklarimni isrof qilishmoqda: daraxtlarni kesishmoqda shuning uchun xavoning ifloslanishi oshib ketmoqda, xayvonlarni ovlashmoqda va juda ko‘plab noyob xayvonlar yo‘qilib ketmoqda, suvni isrof qilishmoqda bu orqali toza ichimlik suvi zaxirasi tugab bormoqda.

Tarbiyachi: kelinglar bolajonlar buni biz manabu video irqali ko‘eib bilib olamiz (bolalarga tabiatni asrash haqida videorolik qo‘yib beriladi). Ana ko‘rdingizmi bolajonlar biz tabiatni asrab avaylashimiz, o‘simliklarni nobud qilmasligimiz, daraxtlarni sindirmasligimiz, xayvonlarga ozozi bermasligimiz, suvni bexud isrof qilmasligimiz kerak ekan.

Dam olish daqiqasi.

Baliq kabi suzamyz

Shamol kabi esamyz

Biz bilog‘on bolamyz

Qushdek parvoz etamyz.

Bolajonlar endi sizlar bilan “ Nima yaxshi- nima yomon “ o‘yinini o‘ynaymiz (doskaga insonlarning yaxshi va yomon ishlari tasvirlangan rasmlar berkitiladi). Doskamizda insonlar qilishi mumkin bo‘lgan yaxshi va yomon ishlar tasvirlangan rasmlar berkitilgan sizlar chiqib bu rasimarni yaxshi yoki yomon ekanligini aytib kerishingiz kerak.

HARAKATLI O‘YIN

Tarbiyachi: bolalar sizlar bilan “Kun – Tun“ o‘yinini o‘ynaymiz: bolalar aylana bo‘lib turishadi biz kunduzi nima qilamyz bolalar o‘ynaymiz, tundachi uxlaymiz, bolajonlar sizlar musiqa eshitilganda musiqa sadosi ostida o‘ynaysizlar, chunki unda kun bo‘ladi, musiqa tugasa o‘tirib uxlaysizlar chunki tun bo‘ladi. O‘yinimiz tushunarlimi unda boshladik.

Markazlarda faoliyat:

San‘at markazida: bolajonlar kelinglar sizlar bilan tabiatimizda bor narsalarning o‘simliklar, daraxtlar ning rasmini chizamyz yoki plastilindan yasamyz.

Fan va tabiat markazida: Suv bilan tajriba o‘tkazamyz kamalak ranglarini hosil qilamyz . Idishga turli xil rangdagi shrinliklarimizni terib olamyz va ustidan duv quyamyz natijada suv yordamida ualr eriydi va kamalak rangi hosil bo‘ladi.

Mashg‘ulot yakuni: mashg‘ulotda faol qatnashgan bolalar rag‘batlantiriladi.

Noyabr oyi: Transport, YHQ, NXA

2-hafta: Ehtiyotkor piyoda haftaligi

Mahg'ulot: Elementar matematika

Mavzu: Nuqta. Chiziq. To'g'ri va egri chiziqlar.

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiy: Bolalarga nuqta, to'g'ri chiziq, egri chiziq kabi ko'nikmalarni shakllantirish bu orqali bolalarda yozish va elementar matematikaga oid tushunchalarni rivojlantirish.

Bolalarga nuqta o'zi nima uni o'rganish nima uchun kerak kabi tushunchalarni egri chiziqni farqini o'rgatish.

Tarbiyaviy: Bolalarda egri va to'g'ri chiziqni o'rganish orqali egri va to'g'ri inson haqida qiyosiy fikrni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarda yangi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash. Mayda qo'l motorikasini rivojlantirish. Nuqtalar kombinatsiyasini to'g'ri tashkil eta olishni o'rgatish

Faoliyatning borishi

Kirish. Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar bilan mashg'ulotimizni boshlaymiz bolajonlar qani aytinglarchi bizning vatanimiz qayer?

Bolajonlar:

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir o'lkamizda qaysi fasl? Bir yilda nechta fasl bor?

Bolajonlar

Tarbiyachi: bolajonlarxonamizda geometrik shakillarga mos predmetlarni topib beringchi


Asosiy qism

Tarbiyachi- bolajonlar bugun biz sizlar bilan nuqta nima? To'g'ri va egri chiziq nima? Uning bizning hayotimizdagi o'rni gaqida tanishamiz. Qani bolajonlar hamma mo'yqalamlarni qo'lga olib oq qog'ozni o'rtasiga tekizamiz. Bolajonlar aytinglarchi qo'gozda nima hosil bo'ldi? **Bolajonlar:** nuqta




Tarbiyachi: bolajonlar endi to‘g‘ri va egri chiziq haqida gaplashamiz. Biz to‘g‘ri va egri chiziq haqida bilamizmi bolajonlar? **Bolajonlar:** yo‘q.

Tarbiyachi: hamma oldida turgan oq qog‘ozni olsin va biz birgalikda qog‘ozni buklaymiz. Bunday buklash chizig‘i to‘g‘ri chiziqdir. Qog‘oz varog‘inj har xil qilib



buklab, ko‘plab gorizontal, vertikal, qiya holatda to‘g‘ri chiziqlar hosil qilishimiz mumkin. Qani bolajonlar oldimizdagi yumshoq simni olamiz. Simdan to‘g‘ri va egri chiziqlarni yasaymiz. Bunda biz sensomotorikani rivojlantiradi. Bunda ular mukammal bilimga, aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Bolajonlar keling to‘g‘ri chiziq chizamiz qo‘limizga hamma o‘zi yoqtirgan rangdagi qalamni olib oldimizdagi qog‘oz bo‘ylab yo‘nalishni o‘zgartirmasdan chiziq chizamiz . Qani bolajonlar ko‘rsatamiz. Ooo bolajonlar biz o‘zimiz bilmagan holda to‘g‘ri chiziq chizibmizku


Qani bolajonlar yana chizamiz va chiziqni uzmagani holda yo‘nalishlarini turli tomonlarga harakatlantirib chizamiz. Bunda egri chiziq hosil bo‘ladi.



Bolajonlar barchamiz egri va to‘g‘rivoy ertagini eshitganmiz ha. Demak nima uchun egriyoy ekan. Demak u to‘g‘ri yo‘ldan yurmay noto‘g‘ri ishlarni qilarkan. Yomon yo‘llardan yurarkan. To‘g‘rivoy esa faqat yaxshilik qilarkan, u har xil yomon yullardan yurmasdan faqat yaxshi yo‘ldan yurarkan. Undan insonlar foyda kurarkan.

Bolajonlar sizlar uchun ajoyib grafamotorim bor. Qani boshladikmi? Bolalar nuqtalarni birlashtirib rasmlarni hosil qiladilar. Qani bolajonlar endi o‘zimiz nuqtalar orqali gul rasmini chizamiz? Bolajonlarni chizgan gullari:

Ragʻbatlantirish: faoliyat yakunida barcha bolalarga ragʻbatlantiruvchi kartochkalar va smayliklar beriladi.



Oʻyin

Oʻyin nomi: “Shakllarni tiklaymiz”

Oʻyin turi: Didaktik

Oʻyinning maqsadi: Bolalarda moʻljal olishni, geometrik shakllarni toʻgʻri tasavvur qila olishni, shakllardagi chiziqlarni toʻgʻri joylashtira olishni oʻrgatish.

Kerakli jihozlar: Geometrik figuralarni rasmi qoʻyilgan A4 formatdagi qogʻoz, chiziqchalar chizilgan lentachalar.

Oʻyinning borishi: Bu oʻyinni oʻrta guruhdan boshlab qoʻllasak boʻladi.

Oʻyinga tayyorgarlik qismi: Oʻyin borishida tarbiyachi oʻrni juda muhim emas, lekin bolalar geometrik figuralar haqida yetarlicha maʼlumotga ega boʻlishlari kerak. Tarbiyachi bolalarga bu oʻyinni oʻynatishda barcha bolalarga yetarlicha narsalarni taqsimlashi kerak. U oʻyin uchun tayyorgarlik koʻrib kelgan boʻlishi kerak. Va tayyorlanib kelingan oʻyin varogʻlari va lentachalar barcha bolalarga tarqatiladi.

Asosiy qism. Bu qismda bolalarga birinchi oʻyin qoidasi tushuntiriladi. Bolalar qoʻllarida chizilgan lentachadagi toʻgʻri chiziqlarni geometrik shakllarga joylashtiradilar.

Mashgʻulotning yakuni:

Tarbiyachi bolalajonlar bugingi mashgʻulotimiz sizlarga yoqdimi qani bugun nimalarni oʻrganib oldingiz?

Bolalar:

Tarbiyachi: bolalajonlar barchangizga mashgʻulotda faol qatnashganingiz uchun rahmat. Uyingizda ota onangiz yordamida toʻgʻri va egri chiziqqa misol topib kleling aziz bolajonlar.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ta'lim tarbiya jarayoninig samarali va sifatli, natijador bo'lishi uchun tarbiyachi barcha turdagi frontal mashg'ulotlarda ya'ni Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish, savodxonlikka o'rgatish, fan va tabiatshunoslik asoslari / ekologiya, elementar matematika mashg'ulotlarida namunaviy mujassam mashg'ulotlarni tashkil qilish juda katta samara beradi. Tarbiyachi o'zi o'tadigan mashg'ulotlarini mustahkamlash uchun har 5-6 mashg'ulotidan so'ng o'sha bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun namunaviy mujassam mashg'ulot o'tkazishi zarur. Tarbiyachi mashg'ulotlarni rejalashtirish jarayonida bolaga bilimni qanday usul bilan bersa ko'proq esda saqlab qola olishini, mashg'ulotga bolalarning diqqatini jalb qilish uchun nimamalr qilish kerakligini bilishi va shu asosida rejalashtirishi zarur. Tarbiyachi mashg'ulotni qiziqarli qilib tashkil qilish uchun ko'proq ta'limiy o'yinlardan ko'proq foydalanishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin, bola uchun o'yin ham o'yin o'qish ham o'yin tarbiyachi xar bir mashg'ulotida shuni yoddan chiqarmasligi zarur. Tarbiychi xar qanday frontal mashg'ulotda o'tiladigan mavzularni markazlarda (Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi, syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi, til va nutq markazi, fan va tabiat markazi, san'at markazi) ishlab mustahkamlab borishlari karak. Bola o'rgangan narsasini amalaliyotda yasb, chizib, ushlab, bajarib ko'rsa shunda uning yodida tez va oson saqlqnb qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish kerak” – T. “O‘zbekiston”-2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori.
3. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” T. 2018
4. “ Ilk qadam” (Takomillashgan, ikkinchi nashr) maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T-2022.
5. Usmonxo‘jayev T. va boshqalar “500 harakatli o‘yinlar”. – T. “Yangi asr avlodi” 2014.
6. Fayzullayeva M. Va boshqalar “Nutq o‘stirish va savodga tayyorlash” T.-2014.
7. Raxmonqulova Z.A, Fayzullayeva M “Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof –muhit bilan tanishtirish” T-2015.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyon

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Namunaviy mujassam mashg‘ulotlarning ta’im jarayonidagi o‘rni.....	4
Namunaviy mashg‘ulot ishlanmalardan namunalar	7
Xulosa	35
Foydalanilgan adbiyotlar	36

X.K. RAVSHANOVA

**MAKTABGACHATA'LIM TASHKILOTI
TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARI
UCHUN NAMUNAVIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI
USLUBIYKO'RSATMA**

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.
Texnik muharrir: Xujakulov Sh.
Nashrga tayyorlovchi: Abdullayev F.



№ 098355

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti,
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqandshahar,
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati, Samarqandshahar,
X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 27.11.2023-yil. Bosishga ruxsat etildi: 04.12.2023-yil.
Bichimi 60x84^{1/16}, “Times New Roman” garniturasida.
Bosma tabog‘i 2. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2023/12
Bahosi kelishilgan narxda
Noshirlik litsenziyasi: № 098355

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazibosmaxonasida nashr etildi